# MAKTAB O‘QUVCHILARINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH ISHLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

***Maxmudova Umida Rixsibayevna***
*Yakkasaroy tumani*
*321 - umumiy o‘rta ta'lim maktab*
*Ma`naviy va ma`rifiy ishlar direktor o`rinbosari*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 14 martdagi PQ-3907-son qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning asosiy vazifalari etib belgilandi:

psixologiya fani yutuqlari, innovatsion psixologik metodika va texnologiyalarni ta'lim jarayoni hamda psixologik amaliyotga tatbiq etish;

ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar asosida psixologik-pedagogik tashxis tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali tatbiq etish;

psixologik yo‘nalishdagi o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

turli yosh davrlarida o‘quvchilarning shahsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning shaxsini shakllanishida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday salbiy og‘ishlarning oldini olish;

psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish ishlarini tubdan yaxshilash, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis, korreksion-rivojlantiruvchi, psixoprofilaktika va psixologik maslahat ishlari samaradorligini oshirish;

pedagogik jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlarini, shaxslararo munosabatlarni va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

ta'lim jarayoni barcha sub'ektlarining psixologik salomatligini muhofaza qilish, o‘quvchilar va pedagogik jamoalarda, o‘quvchilar oilalarida sog‘lom psixologik muhitni saqlash bo‘yicha choralar belgilash, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning eng maqbul yechimlarini topish, aniqlangan muammolarni hal etishda amaliy yordam ko‘rsatish;

iste'dodli va iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o‘rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun sharoit yaratish;

o‘quvchilarning tug‘ma layoqati, qiziqishlari, qobiliyati hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to‘g‘ri kasb-hunar tanlashlariga ko‘maklashish;

o‘quvchilarning shahsiy va ijtimoiy rivojlanishini kuzatish, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish va psixologik-pedagogik tashxis qilish orqali ularning ta'lim-tarbiya jarayoniga, ijtimoiy-kasbiy muhitga samarali moslashuvini ta'minlash;

pedagog xodimlar, o‘quvchilar, hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko‘maklashish;

ijtimoiy muammolari, xulqida salbiy ta'sirlarga moyilligi mavjud bolalar va o‘smirlarni psixologik kuzatib borish, ularning xulq-atvor motivlarini o‘rganish, ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha

olmaslik holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni tashkil ti shva amalga oshirish;
axborot-psixologik xurujlarning xavfi, internetning salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o‘tkazish;
o‘quvchilarning ta'lim va tarbiyasi, o‘quvchi-yoshlar xulqidagi moyilliklar, shaxsning oilaga va jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy muammolari bo‘yicha psixolog va pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash.

Mana shu vazifalardan kelib chiqqan holda, umumta'lim muassasasi psixologlari o‘quvchilar bilan muntazam aloqada bo‘lishlari, ularning kelajaklari haqida qayg‘urishlari, hamda ularning barkamol inson bo‘lib shakllanishlari va dunyoqarashlarini kengaytirishda o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim.

Psixologlar tomonidan o‘tkazilgan juda ko‘p tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va tushunishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bolalarda bilimlarni o‘zlashtirish yuzasidan yetarlicha yuqori darajada ta'lim olish va ijobiy qobiliyatlarni namoyon qilishida ma'lum sharoit ham ta'sir qiladi.

Bola 1-sinfga maktabga borganida moslashish jarayoni qiyin bo‘lganidek, quyi sinfni bitirgan bola maktabning o‘rta bosqichiga, ya'ni 5-sinfga o‘tganda ham moslashishi qiyin kechadi. Bu holatda o‘quvchi ota-onalarning va psixologning xizmatiga ehtiyoj sezadi. Chunki boshlang‘ich sinfda bola faqat bitta o‘qituvchining talablarini bajarishga o‘rganib qoladi. O‘rta sinfga o‘tganda esa har bir darsda yangi o‘qituvchi bilan yangi munosabatlar tizimini o‘rnatish talab etiladi. Ular mustaqil bo‘lishi shu bilan birgalikda o‘z harakatlari uchun hyech qanday mas'uliyatni olmaslikni xohlaydi. Shuning uchun 5-sinfda o‘qish boshlanishiga qadar bolangiz mustaqil qaror qabul qilishni hamda kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilishni bilishi kerakligi muhim deb hisoblanadi. **5-sinfga moslashuv jarayonida ota-onalarning tutgan o‘rni:**

Hamma bolalar ota onalari bilan o‘z ichki dunyosini o‘rtoqlashadi va bu sizlarga ma'lum:

- sizning bolangizga qaysi o‘quv predmetlari yoqadi, qaysilari qiyinchilik yoki ko‘ngilsizlik olib keladi? Siz ota-onalar majlisida qatnashganmisiz, sinf rahbari bilan muloqotda bo‘lganmisiz, u bilan zaruriy hollarda qanday muloqot qilishni bilasiz? Yana shuni bilingki uning yuqoridagilarga va bolalarga munosabati qanday?
- Yana bu judayam muhimki, siz bolangizning do‘stlari (dugonalari)ning ismini bilasizmi va ular sizning uyingizda bo‘lishganmi?

Agar bola yangi o‘quv yilidan o‘qishini yangi maktabda davom ettirayotgan bo‘lsa bunda sizning yordamingiz kerak bo‘ladi. Buning uchun sizning tinchligingiz, xotirjamliligiz, bolaga yordam berishga tayyorligingiz bola moslashuv davrida juda muhim hisoblanadi.

Oilani boshka joyga ko‘chish davrida bola quyidagi qiyinchiliklari bilan to‘qnashadi:

- do‘stlar va tanishlar o‘zgaradi;
- eski munosabatlar uziladi;
- ota-onalar yangi ish joyini topishga urinshadi va h.k.
- boladan esa yaxshi o‘qish va to‘g‘ri hulk talab etiladi.

Ushbu holatda bolaga aqli, tajribali, tushunadigan va sabrli do‘st sifatida ota yoki ona qiyin vaziyatlarni mustaqil yengish yordam berishi kerak. Bola siz uni doima yaxshi ko‘rishingizga va bu uning maktabdagi yutuqlari va omadsizliklariga bog‘liq emasligiga to‘liq ishonch xosil qilishi kerak.

**5-sinfga moslashshuv jarayonida ijtimoiy muhitning tutgan o‘rni:** Bolaning moslashuvida ijtimoiy ko‘nikmalarning ham roli katta, hamda ularni rivojlantirish talab etiladi. Ijtimoiy

ko‘nikmalar: bu mustaqillik, mas'uliyatlilik, boshqalarga yordam berishni bilish, zaruriy xollarda esa yordamni qabul qilish.
Harakat qiling:
- bolangiz mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bulsin: kim bilan do‘stlashish, ta'tilni qanday o‘tqazish, qaysi to‘garakka qatnashish, o‘z burchlarini va vazifalarini qanday tartibda bajarish va hakozo. Ushbu holda bola o‘zini harakatlari natijasi yoki harakatsizlik natijalarini ko‘rishi muhim.
-har xil hayotiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yengish uchun o‘z tashabbusini ko‘rsatish: o‘qituvchidan nazorat ishini yangitdan ko‘chirish mumkinligini; kutubxonaga qanday borish mumkinligini aniqlashtirish; tana harorati ko‘tarilganda tez yordamni chaqirish va h.k.
- faqat o‘zi bajaradigan doimiy uy vazifalariga ega bo‘lish.
“Vazifani yuklash” tushuncha bilan uni bajarish bir biridan tubdan farq qiladi. Bolaga uy vazifalarini bajarish jiddiy va ma'suliyatli ish ekanligi hamda boshqa oila a'zolari xulqi ta'siriga bog‘liq bo‘ladi.
5-sinf o‘quvchilarida boshqa sinf o‘quvchilariga nisbatan yuqori darajadagi xavotirlanish kuzatiladi, bu boshlang‘ich maktabdan o‘rta sinflarga o‘tish davri bilan bog‘lanadi. Aynan 5-sinfga o‘tish davri bilan bog‘liq bo‘lgan xavotirlanishni boshidan kechirayotgan o‘quvchilarni qanday aniqlash mumkin? Buning uchun bir necha metodikalar (Filipsning “Maktabdagi xavotirlanish testi”, Spilbergning “O‘z-o‘zini baholash shkalasi”, Teylorning “Xavotirlanish paydo bo‘lishining shahsiy shkalasi”) mavjud. Ushbu testlar bolalarning maktabdagi turli vaziyatlarda stress xolatiga tushishini aniqlash imkonini beradi. Bular:

- maktabdagi umumiy xavotirlanish;
- ijtimoiy stressdan tashvishlanish;
- yutuqlarga erishishda extiyojlarning frustratsiyasi;
- o‘zini namoyon qilishdan qo‘rqish;
- bilimni tekshirish oldidagi qo‘rquv;
- atrofdagilarning ishonchini oqlay olmaslik qo‘rquvi;
- ruhiy zarbaga past fiziologik qarshilik;
- o‘qituvchi bilan munosabatda qo‘rquv va muammolar.

Ko‘p xollarda “bilimni tekshirish oldidigi qo‘rquv”, “o‘zini namoyon qilishdan qo‘rqish”, “atrofdagilarning ishonchini oqlay olmaslik qo‘rquvi” xavotirlikning yetakchi parametrlari hisoblanadi. Moslashuv jarayonini aniqlashda psixolog so‘rovnoma, test va kuzatish usullaridan foydalanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yvati:**

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, *1*(6), 274-278.
2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 10-16.
3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, *4*(1), 177-180.
4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).

5. Maxmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Science and innovation, 1(B7), 1213-1217.

6. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).

7. Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 157-159.

8. Maxmudova, D. (2022). FORMATION OF BUSINESS ENVIRONMENT AND DIGITAL ECONOMY BASED ON DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS INFRASTRUCTURE. *Science and Innovation*, *1*(8), 312-318.

9. Maxmudova, D. M. (2023, January). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA TAYYORLASHDA INNAVATSIYON KITOBLARNING AXAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 629-632).

10. Махмудова, Д. М., & Омонова, Д. (2023, October). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОУ И СЕМЬИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 2, No. 8, pp. 62-67).

11. Maxmudova, D. (2022). FOREIGN EXPERIENCE IN REGULATING AND SUPPORTING SMALL BUSINESS BY THE STATE. *Science and Innovation*, *1*(7), 482-488.

12. Makhmudova, D. M.(2022). AWAKENING CHILDREN’S PRESCHOOL AGE LOVE OF READING

Maxmudova, D. (2022). CHALLENGES AND PROSPECTS OF SMALL BUSINESS MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY. *Science and Innovation*, *1*(7), 451-461.

13. Makhmudova, D. M. (2022, February). ON THE PROBLEMS OF INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Conference Zone* (pp. 225-226).